

## O‘ZBEK TILIDAGI AKT TERMINLARINING TUZILISHI, TERMIN YASALISH USULLARI VA O‘ZLASHMA TERMINLAR

*Tuychiyev Sobir Abdusodikovich*

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,  
Raqamli ta’lim texnologiyalari markazi boshlig‘i,  
Toshkent, O‘zbekiston  
[orcid.org/0009-0007-0561-262X](https://orcid.org/0009-0007-0561-262X)*

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada o‘zbek tilida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasiga oid terminlarning shakllanishi, ularning tuzilish xususiyatlari, termin yasalish usullari hamda o‘zlashma terminlarning lingvistik va sotsiokultural jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida AKT terminologiyasining morfologik, sintaktik va semantik xususiyatlari o‘rganilib, o‘zlashma terminlarning o‘zbek tiliga moslashuvi jarayoni ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, terminlarning standartlashuvi, ularni milliylashtirish va normativlash masalalari ham muhokama qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** AKT, terminologiya, termin yasalishi, o‘zlashma terminlar, morfologik tuzilish, sintaktik birlik, leksik qatlam, lingvistik moslashuv, normativlik.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida har bir tilning terminologik tizimi boyib bormoqda. O‘zbek tili ham bundan mustasno emas. Zamonaviy AKT sohasida yuzaga kelayotgan yangi tushunchalar va hodisalar yangi terminlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Bu jarayon esa tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan terminologiya fanining dolzarb masalalarini yuzaga chiqarmoqda.

O‘zbek tilidagi AKT terminlarining tuzilishini o‘rganishda ularning morfologik va sintaktik xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Morfologik jihatdan terminlar sodda, qo‘shma va murakkab shakllarda uchraydi. Sodda terminlar bir ildizdan iborat bo‘lib, masalan: “tarmoq”, “fayl”, “server” kabi birliklar shu turkumga kiradi. Qo‘shma terminlar esa ikki yoki undan ortiq so‘zlarning birikishi orqali hosil bo‘ladi: “axborot tizimi”, “ma’lumotlar bazasi”, “sun’iy intellekt”. Murakkab terminlar esa bir necha komponentdan tashkil topib, ko‘pincha aniqlovchi-aniqlanuvchi munosabatida keladi: “global kompyuter tarmog‘i”, “raqamli axborot texnologiyalari” va boshqalar.

AKT terminlarining yasalish usullari turlicha bo‘lib, ular orasida affiksatsiya, kompozitsiya, semantik kengayish va qisqartma yasash usullari alohida o‘rin tutadi. Affiksatsiya orqali termin yasashda o‘zbek tilining so‘z yasovchi qo‘shimchalari faol qo‘llaniladi. Masalan, “raqamlashtirish”, “dasturlash”, “kodlash” kabi terminlar fe‘l asosiga -lash, -lashtirish qo‘shimchalari qo‘shilishi orqali hosil qilingan. Kompozitsiya usuli orqali esa ikki yoki undan ortiq so‘z birikib, yangi termin hosil qiladi: “veb-sahifa”, “internet tarmog‘i”, “axborot xavfsizligi”.

Semantik usul orqali termin yasashda mavjud so‘zlarga yangi ma’no yuklanadi. Masalan, “bulut” so‘zi oddiy lug‘aviy ma’nosidan tashqari AKT sohasida “bulutli texnologiya” tushunchasini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu jarayon tilning ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali amalga oshadi.

AKT terminologiyasida qisqartmalar ham keng qo‘llaniladi. Masalan, IT (Information Technology), AI (Artificial Intelligence), CPU (Central Processing Unit)

kabi qisqartmalar xalqaro miqyosda keng tarqalgan bo‘lib, o‘zbek tilida ham asl shaklida yoki tarjima qilingan holda ishlatiladi. Bu esa terminlarning iqtisodiylik va ixchamlik xususiyatini ta‘minlaydi.

O‘zlashma terminlar masalasi AKT terminologiyasining eng muhim jihatlaridan biridir. O‘zbek tilidagi ko‘plab AKT terminlari ingliz tilidan o‘zlashgan bo‘lib, ular fonetik, morfologik va semantik jihatdan moslashadi. Masalan, “kompyuter”, “printer”, “skaner”, “monitor” kabi terminlar ingliz tilidan o‘zlashgan bo‘lib, o‘zbek tilining fonetik tizimiga moslashtirilgan. Ba‘zi hollarda esa terminlar to‘liq tarjima qilinadi: “artificial intelligence” – “sun‘iy intellekt”, “data base” – “ma‘lumotlar bazasi”.

O‘zlashma terminlarning qabul qilinishi jarayonida ikki asosiy yo‘l kuzatiladi: bevosita o‘zlashuv va kalkalash. Bevosita o‘zlashuvda termin asl shaklini deyarli saqlab qoladi, kalkalashda esa uning tarkibiy qismlari tarjima qilinadi. Har ikki usul ham o‘zbek tilining terminologik tizimini boyitishda muhim rol o‘ynaydi.

Shu bilan birga, o‘zlashma terminlarning haddan tashqari ko‘pligi milliy terminologiya rivojiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli terminlarni milliyashtirish, ya‘ni o‘zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida yangi terminlar yaratish muhim vazifa hisoblanadi. Bu jarayonda tilshunoslar, mutaxassislar va normativ organlar hamkorligi zarur.

Bundan tashqari, o‘zlashma terminlarning o‘zbek tiliga kirib kelishi va moslashuvi jarayonini tahlil qilish tilning leksik boyligini oshirish bilan birga, uning normativ va uslubiy me‘yorlarini belgilashda ham muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, terminlarning bir xil tushunchani ifodalashda turlicha variantlarda qo‘llanishi, sinonimik qatlamlarning yuzaga kelishi va ba‘zan chalkashliklarga olib kelishi terminologiyani tizimlashtirish zaruratini yanada kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan, AKT terminologiyasini standartlashtirish, yagona ilmiy mezonlar asosida tartibga solish hamda ularni milliy til imkoniyatlari asosida rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, terminlarni milliyashtirish jarayonida o‘zbek tilining ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ya‘ni yangi terminlarni yaratishda milliy so‘z yasash modellariga tayanish, tarjima va kalkalash usullarini oqilona qo‘llash muhimdir. Bu esa nafaqat tilning mustaqilligini ta‘minlaydi, balki uning ilmiy funksional imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada o‘zbek tili nafaqat kundalik muloqot vositasi, balki zamonaviy fan va texnologiyalarni ifodalashga qodir to‘laqonli ilmiy til sifatida shakllanadi.

Umuman olganda, AKT terminologiyasini chuqur va tizimli o‘rganish, uni tartibga solish, ilmiy asosda normativlashtirish hamda milliyashtirish orqali o‘zbek tilining xalqaro ilmiy maydondagi nufuzini oshirish, uning raqamli davr talablariga moslashuvchanligini ta‘minlash va kelajak avlodlar uchun boy, mukammal terminologik bazani yaratish mumkin bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) terminlari murakkab, dinamik va ko‘p qatlamli tizimni tashkil etib, ular tilning ichki rivojlanish qonuniyatlari hamda tashqi lingvistik ta‘sirler, ayniqsa globallashtirish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Mazkur terminlar tarkibida milliy leksik birliklar bilan bir qatorda ko‘plab o‘zlashma elementlar ham faol ishtirok etadi, bu esa terminologik tizimning gibridd xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. AKT terminlarining tuzilishi, ularning morfologik va sintaktik xususiyatlari, shuningdek, termin yasashining affiksatsiya, kompozitsiya, kalkalash va semantik kengayish kabi

usullarini chuqur ilmiy asosda o‘rganish o‘zbek tilining zamonaviy ilmiy-texnik salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2020.
2. Rahmatullayev Sh. “Terminologiya asoslari”. – Toshkent, 2018.
3. Crystal D. “A Dictionary of Linguistics and Phonetics”. – Oxford, 2008.
4. Cabré M.T. “Terminology: Theory, Methods and Applications”. – Amsterdam, 1999.
5. Sager J.C. “A Practical Course in Terminology Processing”. – Amsterdam, 1990.